

DAVLAT AKTIVLARINI SAMARALI BOSHQARILISHINI NAZORAT QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Bank-moliya akademiyasi

PhD Mirzayev O.

Bank-moliya akademiyasi

Magistrant: Nazarov G‘ayrat Olim o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu tezisda davlat aktivlarini samarali boshqarilishini nazorat qilishni takomillashtirish mavzusida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zi: davlat aktivlari, davlat mulki, davlat ulushi, davlat mulkidan foydalanish, xo‘jalik jamiyatlari, davlat unitar korxonalarini, samarali dividend siyosati, rieltorlar xizmati nazorat qilish.

Annotation: This thesis deals with the topic of improving control over the effective management of state assets.

Key words: control of state assets, state property, state share, use of state property, economic societies, state unitary enterprises, effective dividend policy, realtor service.

Аннотация: Данная тезиса работа посвящена теме совершенствования контроля за эффективным управлением государственными активами.

Ключевое слово: контроль над государственными активами, государственная собственность, государственная доля, использование государственного имущества, хозяйственные общества, государственные унитарные предприятия, эффективная дивидендная политика, риэлторские услуги.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “[Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)” PQ-101-son Qarorida davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari etib, quyidagilar belgilab berildi:

- Davlat aktivlarini boshqarish va xususiylashtirish bo‘yicha vakolatli davlat organi sifatida yagona davlat siyosatini yuritish.

- Davlat aktivlarini ochiq va shaffof xususiylashtirish orqali ularning iqtisodiyotdagi ulushini muttasil qisqartirib borish, xususiylashtirish tartib-taomillarini soddalashtirish.

- Davlat mulki hisobini yuritish, boshqarish va xususiylashtirish hamda to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish.

- Davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarini isloh qilishda ishtirok etish, ularda samarali dividend siyosatining yuritilishini muvofiqlashtirish, korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish, xaridlar hamda investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish.

- Davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish va bu to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish.

- Baholovchi va rieltorlar xizmatini sertifikatlashtirish, ularning faoliyatini rivojlantirish choralari ko'rish.

- To'lovga qobiliyatsizlik ishlari bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish.¹

Bugungi shiddat bilan axborotlarni raqamlashtirish rivojlanib borayotgan zamonda davlat aktivlarini boshqarish va nazorat qilish hamda davlat aktivlarini boshqarish agentligining faoliyatini takomillashtirish qulay bo'lib bormoqda. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan Prezident qarorining 5-bandida keltirilgan:

- davlat ko'chmas mulk obyektlari, davlat ulushi, davlat unitar korxonalari va davlat muassasalari hamda ularga tegishli avtotransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb-saytida real vaqt rejimida e'lon qilib borilishi,

- davlat ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni va ulushi, moliyaviy natijalari, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi va boshqa muhim axborotlarni o'z ichiga oluvchi davlat ishtirokidagi korxonalarining yig'ma hisoboti har yili 1-avgustga qadar Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishi,

- 2023-yil 1-oktabrgacha "Davlat mulki obyektlari bilan savdolari o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish portali" yaratiladi, unda barcha davlat mulki obyektlarini savdoga chiqarish va uning natijalari to'g'risidagi axborotlar joylashtiriladi hamda ushbu tizim soliq organlarining axborot tizimiga integratsiya qilinishi;

hamda shu buqarorning 6-bandida keltirilgan, "E-auksion" elektron savdo platformasida:

- xususiy mulkdorlar buyurtmasiga asosan ularning mulklarini soddalashtirilgan tartib va muddatlarda sotish bo'yicha savdolar o'tkazilishi,

- 2023-yil 1-sentabrdan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh pul mablag'larini depozitga joylashtirish bo'yicha tijorat banklari o'rtasida foiz oshib borish tarzida bank kapitali yetarliligi, bank kapitalining uning majburiyatlariga

^{1/2} O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "[Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" PQ-101-son Qarori.

nisbati, likvidlilik koeffitsiyenti kabi shartlarni nazarda tutgan holda auksion savdolari o'tkazilishi.²

Bundan ma'lum bo'lib turibdiki, yuqorida sanab o'tilganlardan kelib chiqib barcha ma'lumotlar ochiq, oshkora hamda shaffofligi ta'minlanadi va bundan davlat aktivlarini boshqarish agentligining faoliyatini yuritishda, tashqi foydalanuvchilarni operativ ma'lumot olshlariga hamda jarayonlarni kuzatib borish va masofadan turib online nazorat qilishning qulay imkonini beradi. Bu bugungi kundagi raqamli tenologiyalar orqali axborotlarni olish, qayta ishlashning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyuldagi "Davlat aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etishda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang'ich qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" PQ- 312-son [Qarori](#).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-avgustdagi "[Davlat aktivlarini sotish uchun xalqaro hamda mahalliy maslahatchini yoki tashkilotlarni jalb etishda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibini belgilash to'g'risida](#)" 352-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 5-oktabrdagi "[O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi buyurtmalariga asosan baholash obyektlarini baholashda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining qiymatini aniqlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida](#)"gi qaror, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida" 01/13-13-12/833-son buyrug'i.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "[Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" PQ-101-son Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi "[Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" 356-son Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "[Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" PF-5630-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "[O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida](#)" PQ-4112-son Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi "[Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to'g'risida](#)" PF-6167-son Farmoni,

1. Lex.uz